



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

GINGIVIT: SABABLARI, TURLARI, KLINIK BELGILARI
VA ZAMONAVIY DAVOLASH USULLARI

Imomova Shabnam Faxriddin qizi

imomovashabnam493@gmail.com

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti

Stomatologiya yoʻnalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Gingivit – bu milk toʻqimalarining yalligʻlanishi bilan kechuvchi, koʻp uchraydigan stomatologik kasalliklardan biridir. U koʻpincha blyashka toʻplanishi, yomon ogʻiz gigiyenasi yoki umumiy sogʻliq muammolari bilan bogʻliq boʻladi. Ushbu maqolada gingivitning klinik belgilari, gingivit va parodontit oʻrtasidagi asosiy farqlar, shuningdek, zamonaviy davolash usullari yoritib berilgan. Bemorning shaxsiy gigiyenasiga amal qilishi, professional gigiyena tozalovlari va mahalliy antiseptik vositalardan foydalanish davolashda muhim oʻrin tutadi. Shuningdek, maqolada etiotrop va simptomatik muolaja usullari haqida ham maʼlumotlar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: gingivit, milk yalligʻlanishi, ogʻiz gigiyenasi, parodontit, blyashka, antiseptik, davolash usullari, stomatologiya.

Аннотация: Гингивит — одно из наиболее распространённых стоматологических заболеваний, характеризующееся воспалением тканей дёсен. Чаще всего оно связано с накоплением зубного налёта, плохой гигиеной полости рта или общими нарушениями здоровья. В данной статье рассматриваются клинические проявления гингивита, основные отличия между гингивитом и пародонтитом, а также современные методы лечения. Особое внимание уделено значению личной гигиены пациента, профессиональной чистке полости рта и использованию местных



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

антисептиков. Также изложены этиотропные и
симптоматические подходы к лечению.

Ключевые слова: гингивит, воспаление дёсен, гигиена
полости рта, пародонтит, налёт, антисептики, методы лечения, стоматология.

Annotation: Gingivitis is one of the most common dental diseases characterized by inflammation of the gingival tissues. It is often associated with plaque accumulation, poor oral hygiene, or general health issues. This article discusses the clinical features of gingivitis, its main differences from periodontitis, and modern treatment methods. Particular attention is paid to the importance of personal hygiene, professional oral cleaning, and the use of topical antiseptics. The article also presents both etiological and symptomatic treatment approaches.

Keywords: gingivitis, gum inflammation, oral hygiene, periodontitis, plaque, antiseptics, treatment methods, dentistry.

KIRISH

Gingivit - bu milk to‘qimalarining yallig‘lanishiga olib keluvchi keng tarqalgan parodontal kasallikdir. Uning asosiy klinik belgilari sirasiga milkning qizarishi, shishishi, qonashi va og‘riqli holatlari kiradi. Bu holat odatda og‘ir og‘riqlar bilan kechmaydi, lekin e’tiborsiz qoldirilgan taqdirda parodontit kabi chuqurroq to‘qimalarga o‘tib, tish yo‘qotilishigacha olib kelishi mumkin. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, butun dunyo bo‘yicha har ikkinchi insonda turli darajadagi gingival yallig‘lanishlar aniqlanadi. Ayniqsa, shaxsiy gigiyenaga rioya qilinmasligi, ovqatlanishdagi xatolar, gormonal o‘zgarishlar va ayrim dorilar gingivitning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda stomatologiyada bu kasallikni davolashda yangi, zamonaviy usullar, jumladan, lazer



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

terapiyasi, probiotik vositalar, o‘simlik ekstraktlariga asoslangan preparatlar keng qo‘llanilmoqda. Mazkur maqolada gingivit kasalligini keltirib chiqaruvchi sabablar, ularning turlari, klinik ko‘rinishlari hamda zamonaviy davolash yondashuvlari tahlil qilinadi.

Etiologiyasi va rivojlanish omillari

Gingivit ko‘plab omillar ta’sirida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yallig‘lanishli kasallik bo‘lib, uning asosiy sababi sifatida milk chetlarida to‘planadigan tish plagi (mikrobiy blyashka) ko‘rsatiladi. Plak – bu oziq-ovqat qoldiqlari, bakteriyalar va epiteliy hujayralarining birikmasidan iborat bo‘lib, muntazam gigiyena qilinmasa tezda to‘planadi va yallig‘lanish jarayonini boshlaydi (Chapple et al., 2018). Bundan tashqari, quyidagi omillar gingivit rivojlanishiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi:

Noto‘g‘ri og‘iz gigiyenasi - tish yuvmaslik, noto‘g‘ri cho‘tka ishlatish yoki tish oralig‘ini tozalamaslik.

Gormonal o‘zgarishlar – ayniqsa homiladorlik, o‘smirlik davri yoki menopauzada milk to‘qimalari yallig‘lanishga moyil bo‘ladi (Hahner, 2022).

Ba’zi dori vositalari – masalan, fenitoin, kaltsiy antagonistlari, immunosupressorlar gingival to‘qimalarda giperplaziya yoki shish paydo qiladi.

Sigaret chekish – qon aylanishni buzadi, milk to‘qimalarining regeneratsiyasini sekinlashtiradi.

Sistematik kasalliklar – diabet, leykemiya va immunitet bilan bog‘liq buzilishlar gingivitni og‘irlashtiradi.



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

Ovqatlanishdagi xatolar – C vitamini tanqisligi, yallig‘lanishga qarshi komponentlarning yetishmasligi milk salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi (Kistler et al., 2025).

Shu kabi omillar ta’sirida gingivit rivojlanadi va asta-sekin surunkali holatga o‘tishi mumkin. Ahamiyatli jihati shundaki, ushbu omillarning aksariyati boshqariladigan (ya’ni, oldini olsa bo‘ladigan) omillardir. Shu bois gigiyena va turmush tarzini to‘g‘ri tashkil qilish kasallikni oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Gingivit turlari. Gingivit turli klinik shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. 2017-yilgi Jahon Parodontologiya Workshopiga (AAP & EFP) ko‘ra, gingivit plak bilan bog‘liq va plak bilan bog‘liq bo‘lmagan shakllarga bo‘linadi (Chapple et al., 2018).

Plak-induklangan gingivit. Bu eng ko‘p uchraydigan shakl bo‘lib, uning rivojlanishida asosiy omil sifatida tish blyashkasi (plak) qaraladi. Gigiyena talablariga rioya qilinmaganda blyashkada bakteriyalar to‘planadi va milk yallig‘lanishini boshlaydi. Milk qizaradi, shishadi va qonay boshlaydi. Bu holat odatda og‘riqsiz kechadi va gigiyena tiklansa, qaytish xususiyatiga ega (Newman & Takei, 2018).

No-plak sababli gingivit. Bu guruhga quyidagilar kiradi:

Gormonal gingivit – o‘smirlik, homiladorlik, hayz tsikli o‘zgarishlari sababli kelib chiqadi.

Dorilarga bog‘liq gingivit – immunosupressorlar (masalan, siklosporin), fenitoin yoki kaltsiy antagonistlari (nifedipin) gingival giperplaziyani chaqiradi.

Allergik yoki zamburug‘li gingivit – kontaktli dermatit yoki kandidalar ta’sirida yuzaga keladi (Lin et al., 2025).



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

O'tkir va surunkali gingivit. O'tkir gingivit – to'satdan boshlanadi, kuchli shish, qonash va og'riq bilan kechadi. Surunkali gingivit – uzoq davom etadi, simptomlari sustroq, lekin davolanmasa parodontitga olib keladi.

Deskvamativ gingivit. Bu alohida shakl bo'lib, milk epiteliyasining yuzaki qatlamlari ko'chishi (deskvamatsiya), og'riq va sezuvchanlik bilan namoyon bo'ladi. Ko'pincha bu og'ir autoimmun kasalliklarning belgisi sifatida qaraladi (masalan, pemfigoid, liken planus).

Klinik belgilar va tashxis. Gingivitning klinik ko'rinishlari kasallikning turiga, og'irlik darajasiga va davomiyligiga bog'liq bo'lsa-da, quyidagi umumiy belgilar eng ko'p uchraydi:

Asosiy klinik belgilar: Milkning qizarishi (eritema) – yallig'lanish tufayli qon tomirlari kengayadi.

Shish (o'dem) – to'qimalarda suyuqlik yig'ilishi.

Qonash – ayniqsa tish tozalaganda yoki ovqat chaynaganda tez-tez kuzatiladi.

Og'riq yoki sezuvchanlik – odatda yengil bo'ladi, lekin o'tkir shakllarda kuchli bo'lishi mumkin.

Milk chetining o'zgarishi – giperplaziya yoki retraksiyaga moyillik.

Bundan tashqari, bemorlarda noxush hid (halitoz), tishlar orasida oziq-ovqat tiqilib qolishi kabi shikoyatlar ham bo'lishi mumkin.

Tashxis qo'yish: Gingivit tashxisi quyidagi vositalar asosida aniqlanadi:

Klinik ko'rik – milk ranggi, shakli, sathidagi o'zgarishlar baholanadi.



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

*Sonda (periodontal zond) bilan tekshirish – qonash bo‘lishi,
cho‘ntak chuqurligi (odatda 3 mm dan oshmaydi).*

*Gingival Bleeding Index (GBI) yoki Bleeding on Probing (BoP)
– yallig‘lanish darajasini aniqlash uchun ishlatiladi (Hahner, 2022).*

Plak indeksleri – blyashka darajasi o‘lchanadi (Silness & Loe indeksi).

Ayirma tashxis: Gingivit ko‘pincha parodontit bilan adashtiriladi, ammo ularning farqlari bor: Gingivitda milk cho‘ntaklari normal yoki biroz chuqurlashgan bo‘ladi, biroq suyak to‘qimalarining yemirilishi va tish harakatchanligi kuzatilmaydi (Carranza, 2018). Parodontitda esa tish cho‘ntaklari chuqurlashadi, suyak yo‘qoladi va tishlar harakatchan bo‘lib qoladi (Slots & Slots, 2017). Gingivitning muhim jihati shuki, u orqaga qaytarilishi mumkin bo‘lgan kasallik hisoblanadi. Vaqtida aniqlansa, milk to‘qimalarida tuzalmaydigan o‘zgarishlar yuzaga kelmaydi.

Davolash. Gingivit kasalligini davolashda asosiy maqsad — yallig‘lanishga olib keluvchi omillarni bartaraf etish, og‘iz gigiyenasini yaxshilash va bemorning holatini nazorat ostiga olishdan iboratdir. Dastlabki bosqichda bemorga professional tibbiy yordam ko‘rsatiladi. Bu yordamga tish yuzasida to‘plangan blyashka va zub toshlarini olib tashlash, ya’ni professional gigiyenik tozalash kiradi. Blyashkalar — tish go‘shining yallig‘lanishiga sabab bo‘luvchi asosiy omillardan biri bo‘lib, ular olib tashlanmasa, kasallik chuqurlashib boradi (Waerhaug, 1978). Davolash davomida bemorga antiseptik vositalar bilan og‘iz bo‘shlig‘ini chayish tavsiya etiladi. Xlorheksidin 0,12% yoki 0,2% eritmasi hozirda keng qo‘llanilmoqda. Ushbu eritma mikroorganizmlarni yo‘q qilishga va yallig‘lanishni kamaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari, Furatsillin, Miramistin, Romazulan singari mahalliy antiseptiklar ham muolajaga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi (Barnett, 2006). Shaxsiy og‘iz gigiyenasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish ham muhim ahamiyatga ega. Bemor har kuni ertalab va kechqurun tishlarini to‘g‘ri texnikada tozalashi, tish oralarini maxsus iplar



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

yoki interdental choʻtkalar yordamida tozalashi kerak (Lang et al., 2015). Baʼzi hollarda kasallik gormonal oʻzgarishlar, dori vositalari yoki boshqa umumiy kasalliklar fonida paydo boʻladi. Bunday hollarda esa etiotrop davolash, yaʼni asosiy sababni bartaraf etish orqali natijaga erishiladi. Yalligʻlanishni kamaytirish maqsadida ayrim hollarda metronidazol yoki Holisal kabi dorivor gel va malhamlar qoʻllaniladi. Bundan tashqari, C vitamini, B guruhi vitaminlari bilan vitaminoterapiya tavsiya etiladi. Kasallikning bosqichiga qarab, davolash usullari farq qilishi mumkin, ammo har qanday holatda ham kompleks yondashuv va individual nazorat zarur hisoblanadi. Davolash yakunlangach, bemor 10–14 kundan soʻng qayta koʻrikdan oʻtkaziladi va sogʻlomlashtirishdan soʻng profilaktika choralari tavsiya etiladi (Lang et al., 2015).

Xulosa

Gingivit — ogʻiz boʻshligʻi sogʻligʻiga jiddiy tahdid soluvchi yalligʻlanishli kasallik boʻlib, vaqtida aniqlanib, davolanishi zarur. Uning asosiy sababi blyashka hisoblanadi, biroq ayrim holatlarda blyashkaga aloqasi boʻlmagan omillar ham roʻl oʻynaydi. Profilaktika va erta tashxis qoʻyish orqali kasallikning oldi olinadi. Tish shifokoriga muntazam murojaat qilish, toʻgʻri gigiyenaga amal qilish kasallikni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Newman M.G., Takei H.H., Klokkevold P.R., Carranza F.A. Carranza's Clinical Periodontology. 12th ed. Elsevier, 2018.
2. Трифонов Е.В., Жулев Е.Н. Современные аспекты профилактики заболеваний пародонта. // Стоматология для всех. — 2019.



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

3. Grudyanov A.I., Osulin D.A. Современные подходы к лечению гингивита и пародонтита. — М.: МЕДпресс-информ, 2021.
4. Slots J., Slots H. Periodontal infections: understanding the complexity. // Periodontology 2000, 2017.
5. BO3 (World Health Organization). Oral health fact sheet, 2023.